

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI  
OLIIY TA'LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI

FARG'ONA DAVLAT UNIVERSITETI

**FarDU.  
ILMIY  
XABARLAR**

1995-yildan nashr etiladi  
Yilda 6 marta chiqadi

**2024/3-SON  
ILOVA TO'PLAM**

**НАУЧНЫЙ  
ВЕСТНИК.  
ФерГУ**

Издаётся с 1995 года  
Выходит 6 раз в год

<b>G.T.Xusanova</b>	
Boshlang'ich sinflarda zid ma'noli so'zlardan o'rinli foydalanish ko'nikmasini shakllantirish.....	335
<b>M.A.Kuchkarova</b>	
Развитие креативности учащихся с помощью игровых методов обучения .....	338
<b>Z.M.Sidikova, X.T.Ibroximova</b>	
Allomalar merosi vositasida o'quvchilarning o'quv-bilish faoliyatini rivojlantirishning pedagogik-psixologik yo'nalishlari .....	342
<b>K.Sh.Nishonova</b>	
Boshlang'ich ta'limda integrativ ta'lim va uning turlari.....	347
<b>A.R.Dilbarjonov</b>	
Zamonaviy ta'lim jarayonida interfaol usullar va zamonaviy axborot texnologiyalarini o'quv jarayoniga tatbiq etish usullari .....	350
<b>I.V.Xoldarova, M.D.Akbarova</b>	
Kichik yoshli o'quvchilarni savodga o'rgatishda axborot texnologiyalaridan foydalanishning samarasi .....	354
<b>M.M.Abdumannopov</b>	
Ta'limni raqamlashtirish sharoitida talabalarning mustaqil ta'lim olish kompetensiyasini rivojlantirish masalalari .....	358
<b>T.Y.Bakirov, O.S.Axmadjonova</b>	
Maktab matematikasida kasrlar mavzusini induktiv metodika asosida o'qitish xususiyatlari ....	362
<b>N.A.Qodirova</b>	
Texnika oliy o'quv yurtlari talabalarida yozish ko'nikmalarini wiki- texnologiya asosida rivojlantirish metodikasi" (Ingliz tilini o'qitish misolida).....	366
<b>Z.N.Ortiqova</b>	
Oilada bolalarni milliy qadriyatlar va an'analar asosida tarbiyalashning pedagogik omillari .....	370
<b>M.N.Nasritdinova, T.A.Egamberdiyeva</b>	
Ta'limda o'zlashtirish samaradorligini oshirishda artpedagogikaning o'rmi .....	377
<b>I.Kirgizov</b>	
"Ey sabo" – komil insonga aksiologik yondashuv.....	381
<b>A.T.Karimov</b>	
Milliy musiqaning shakllanishi va rivojlanishida xalq qo'shiqlarini qayta ishlashning o'ziga xos tamoyillari .....	386
<b>A.M.Nurmuxammadjonov</b>	
Jamiyatning yangi taraqqiyot bosqichida yoshlar musiqiy tafakkurini yuksaltirish zaruriyati.....	390
<b>M.M.Najmetdinova</b>	
Ommaviy-madaniy tadbirlar tushunchasining mazmun-mohiyati va konseptual asoslari .....	396
<b>M.Kurbanova</b>	
Dutor cholg'usi ijrochiligida musiqiy savodxonlikni shakllantirish metodlari.....	400
<b>X.M.Shermatova</b>	
Maktabgacha ta'lim tizimida zamonaviy axborot texnologiyalardan foydalanishning ahamiyati .....	403
<b>T.N.Shokirov</b>	
Markaziy Osiyo madaniyati va san'ati jahon madaniyatining rivojlanish chorrahasi .....	407
<b>B.M.Qurbonova</b>	
Ijodkor ongida badiiy tafakkur holatini o'zgartirishga sabab bo'luvchi omillar .....	410
<b>L.Sh.Shukurova</b>	
Zardo'zlik san'ati buyumlarining badiiy uslubiy jihatlar va uning ilmiy tahlili.....	415
<b>A.A.A'zamjonov</b>	
Yangi O'zbekistonda ma'rifatli jamiyat qurishda tasviriy va amaliy san'atning o'rmi .....	419
<b>A.A.Abdisattorov</b>	
Musiqqa fani o'qituvchisining ijodiy kompetentligini rivojlantirish omillari .....	422
<b>I.D.Rustamov</b>	
O'zbek zarbli cholg'ularining ijtimoiy hayotdagi o'rmi (Doira cholg'usi misolida).....	428
<b>A.A.Ergashev</b>	
Vokal-xor ta'limida finale-2003 dasturining qo'llanishi.....	432
<b>A.A.Mamurov</b>	
Rishton kulolchilik maktabining rivojlanish bosqichlari .....	438



UO'K: 37.016:53

**BOSHLANG'ICH TA'LIMDA INTEGRATIV TA'LIM VA UNING TURLARI.****ИНТЕГРАТИВНОЕ ОБРАЗОВАНИЕ И ЕГО ВИДЫ В НАЧАЛЬНОМ ОБРАЗОВАНИИ.****INTEGRATIVE EDUCATION AND ITS TYPES IN PRIMARY EDUCATION.**

**Nishonova Kamola Shokirjon qizi**   
Farg'ona davlat universiteti o'qituvchisi

**Annotatsiya**

Mazkur maqolada zamonaviy ta'lim haqida tushuncha, ta'lim turlari haqida tushuncha, boshlang'ich ta'limning o'ziga xosligi, ta'limni tarbiya turlari bilan integratsiya qilinishi, boshlang'ich ta'limda fanlarning bog'lanishi, integratsiya so'zining lug'aviy ma'nosi, integrativ ta'limning mazmun va mohiyati, boshlang'ich ta'limda integrativ ta'limning qo'llaniladigan usul va vositalari, ularni amaliyotda qo'llash yo'l-yo'riqlari, integrativ ta'limning o'qituvchilarga ko'magi va o'quvchilarga foydali jihatlari, pedagoglar tomonidan qanday qilib darslarda integrativ ta'limdan foydalanish kerakligi, kompleks fikrlash va uning ta'lim jarayaniga ta'siri, analitik fikrlash va uning o'quvchiga ta'siri, tanqidiy fikrlash qobiliyati, motivatsiya oshishi, ijodkorlikni rivojlantirish, integrativ ta'lim o'quvchilarni o'qitish, rivojlanishi va tarbiyasining muvoffaqiyatlari ularning dunyosining birligi haqida tushunchaning shakllanganligi, o'quvchilarni ta'limga nisbatan qiziqishini uyg'otish, berilgan topshiriqlarga noodatiy va yangi yechimlar topishga intilishlari, ta'lim jarayodida innovatsion tushunchalar, tizim ichidagi tasavvurlar o'quvchilarning butun bir fanlarni bilishini ta'minlaydi. (fizikaviy, kimyoviy, biologik, bilimlar tizimi) o'rganilayotgan fan doirasidagi bilimlarda keng foydalanish kuzatiladi, bayon qilingan psixologik dalillar boshlang'ich, to'liqsiz o'rta va o'rta maktab ta'limini integratsiyalashning asosiy xususiyatlarini aniqlashga imkon beradi.

**Аннотация**

В данной статье рассматриваются понятие современного образования, понятие типов образования, уникальность начального образования, интеграция образования с видами образования, связь предметов в начальном образовании, слово интеграция, словарное значение, содержание и сущность интегративного образования, методы и инструменты интегративного образования, используемые в начальном образовании, рекомендации по их практическому применению, поддержка интегративного образования для учителей и преимущества для учащихся, как педагогам следует использовать интегративное обучение на занятиях, сложное мышление и его влияние на учебный процесс, аналитическое мышление и его влияние на учащихся, способность критического мышления, повышение мотивации, развитие творческих способностей, успешность интегративного образования в обучении, развитии и воспитании учащихся, формирование понимания единства своего мира, пробуждение Интерес учащихся к образованию, их стремление находить необычные и новые решения поставленных задач, инновационные концепции в образовательном процессе, воображение внутри системы обеспечивают знание учащимися целого ряда предметов. (физическое, химическое, биологическое, системное знание) широко используется в области познания, описанные психологические данные позволяют определить основные особенности интеграции начального, неполного среднего и старшего школьного образования.

**Abstract**

In this article, the concept of modern education, the concept of types of education, the uniqueness of primary education, the integration of education with the types of education, the connection of subjects in primary education, the word integration the dictionary meaning of, the content and essence of integrative education, the methods and tools of integrative education used in primary education, guidelines for their practical application, integrative education support for teachers and benefits for students, how pedagogues should use integrative learning in classes, complex thinking and its impact on the educational process, analytical thinking and its impact on students, critical thinking ability, increase in motivation, development of creativity, success of integrative education in teaching, development and upbringing of students, the formation of an understanding of the unity of their world, arousing students' interest in education, and their desire to find unusual and new solutions to given tasks, innovative concepts in the educational process, imaginations within the system ensure that students know a whole range of subjects. (physical, chemical, biological, system of knowledge) is widely used in the field of knowledge, the described psychological evidence allows to determine the main features of the integration of primary, incomplete secondary and high school education.

**Kalit so'zlar:** Boshlang'ich ta'lim, integrativ ta'lim, metod, vosita amaliyotda qo'llash, mazmun-mohiyat

**Ключевые слова:** Начальное образование, интегративное образование, метод, применение инструмента на практике, содержание-сущность.

**Key words:** Primary education, integrative education, method, tool application in practice, content-essence



## KIRISH

Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyev Miromonovich o'z nutqida: "Ilm-fan – taraqqiyot asosi. Zamonaviy ilm-fan yutuqlariga, innovatsion g'oyalarga tayanmagan davlatning ham, jamiyatning ham kelajagi yo'q. Faqat ilm va ma'rifat, intellektual salohiyat, har tomonlama bilimli kadrlar hisobidan biz O'zbekistonni yangi taraqqiyot bosqichiga olib chiqa olamiz"- degan fikrlarni ilgari surgan.[1] Shiddat bilan rivojlanib borayotdan jahonda, ta'lim tizimi ham jadal sur'atlarda rivojlanib bormoqda. Bu esa pedagoglardan ta'lim tizimiga innovatsion va kreativ yondashuvni talab qilmoqda. Hozirgi kunda innovatsion tushunchalarning kengayib borishi ta'limga kiritilayotgan o'zarishlardan desak ham to'g'ri bo'ladi. Ta'limning boshlanishi boshlang'ich sinfdan bo'lganligi uchun, asosan, e'tiborni boshlang'ich sinflarga qaratmoq kerak. Innovatsiyaning maqsadi – sariflangan mablag' yoki kuchdan eng yuqori natija olishdan iborat.[3] Innovatsion darslarni tashkillash, o'quvchilar ongida yangi tushunchalarni izohlari bilan esda saqlatish, asosan esa, ta'limni hayot bilan integratsiya qilish integrativ ta'limning mazmun va mohiyati hisoblanadi. Boshlang'ich sinflarda integrativ ta'lim nima, unga nimalarni misol qilish mumkinligi haqida o'qituvchilar yetarli bilim malaka va ko'nikmalarga ega bo'lishi kerak.

### ADABIYOTLAR TAXLILI VA METODOLOGIYA

Integrativ ta'lim tushunchasi haqida fikr yuritadigan bo'lsak dastlab integratsiya so'ziga to'xtalib o'tishimiz kerak. «Intergratsiya» so'zi lotincha integratio-tiklash, to'ldirish, «integer» butun so'zlaridan tarkib topgan ikkita tushunchaga egamiz:

1. Tizim, organizmning alohida tabaqalashtirilgan qism va vazifalarning bog'liqlik holatini bildiruvchi tushuncha va shu holatga olib boruvchi jarayon hisoblanadi.

2. Tabaqalashtirish jarayonlari bilan birga amalga oshirilayotgan fanlarni yaqinlashtirish jarayoni hisoblanadi.

Zamonaviy didaktik va metodikada ta'kidlanishicha, o'quvchilarni o'qitish, rivojlanishi va tarbiyasining muvaffaqiyatlari ularning dunyosining birligi haqida tushunchaning shakllanganligi, o'z faoliyatlarini umumiy tabiat qonunlari asosida yo'lga solish zaruriyatini tushunishlari, fanlararo bog'liqlik, fan ichida mavzulararo bog'liqlik va tabiatshunoslik kursida predmentlararo va predmetlar ichidagi aloqalarni yecha olishlari bilan bog'liqdir. Ta'limdagi integratsiya o'quv predmetlari mazmunini konstruksiyalashga tizimli yondashish orqali ko'rib chiqiladi.

Integratsiyaning turli darajalari ajratiladi: boshlang'ich, tabiat haqidagi elementlar [bilimlarni birlashtiradi](#); oraliq - predmetlar bo'limlarini bo'lish intergratsiyasi; yakuniy - tabiatshunoslikni o'rganish bilan bog'liq bo'lgan ta'limning oxirgi bosqichi integratsiyasi. Shu bilan birga, tabiiy-ilmiy ta'limni to'liqroq va kengroq integratsiyalash imkoniyati ham inkor etilmaydi. [4] Tabiat yoki predmet haqidagi eng oddiy bilimlarni hosil qiluvchi bog'liqlikning eng soddasi ma'lum bir joy yoki tushuncha bilan chegaralangan lokal tasavvurdir. Bu bog'liqlik boshqa [bilimlardan nisbatan ajralgan](#), shuning uchun eng oddiy aqliy faoliyatni ta'minlaydi. Boshlang'ich sinf o'quvchilar yoshiga xos. Biror bir tizimga tegishli bo'lgan tasavvurlar eng soddasi tizimli tasavvurlardir. Ular biror bir mavzu, predmet yoki hodisani o'rganishi asosida hosil bo'ladi. Biror bir predmetni bilish yangi fakt va tushunchalarning tanlanishi ularni bir bilimlar bilan taqqoslanishi orqali amalga oshiriladi. Bilimlarning eng oddiy umumlashtirish sodir bo'ladi, lekin olingan bilim hamma unga yaqin bo'lgan bilimlar bilan bog'lansa edi.

Bunda o'quvchilarning tahlil qilish va umumlashtirish faoliyatlari vujudga keladi. Tizim ichidagi tasavvurlar o'quvchilarning butun bir fanlarni bilishini ta'minlaydi. (fizikaviy, kimyoviy, biologik, bilimlar tizimi) o'rganilayotgan fan doirasidagi bilimlarda keng foydalanish kuzatiladi. Predmetlararo tasavvurlar aqliy faoliyatining eng yuqori pog'onasi hisoblanadi. Ular bilimlarning turli [tizimlarini birlashtiradi](#), hodisa yoki jarayonning xilma-xilligini bilishiga imkoniyat beradi. Shu bilimlar asosida umumiy tushunchalar kelib chiqadi. Tizimlararo tasavvurlarning shakllanishi, ularni bilimlardan foydalanishga, ularin bir-biriga bo'ysundirishga, bilimlar chegarasida bo'shliqliklarni aniqlashga imkon beradi.

Bayon qilingan psixologik dalillar boshlang'ich, to'liqsiz o'rta va o'rta maktab ta'limini integratsiyalashning asosiy xususiyatlarini aniqlashga imkon beradi.

### NATIJA VA MUHOKAMA

Keyingi yillarda boshlang'ich ta'lim sohasida integrativ ta'limni o'rganish alohida ahamiyatga ega bo'lganligi bois, ko'plab tadqiqotlar amalga oshirilmoqda. Shu sababli, boshlang'ich sinf darsliklari ham integrativ ta'lim asosida nashr qilinmoqda.



## PEDAGOGIKA

Masalan: darsliklarda berilayotgan mavzular ma'lumotlari boshqa bir fanning mavzulari ma'lumotlariga mos kelishi, fanning mavzulari o'zaro bir-birini to'ldirishi.

Boshlang'ich sinf o'qituvchisi o'quvchilarga yangi bilimlarni berish davomida ularda bilimlar zanjirini hosil qilishi kerak. Bunda esa ularga mana shu integrativ ta'lim yordam beradi. Tadqiqotlar natijasi shuni ko'rsatadiki, integrativ ta'lim boshlang'ich ta'lim jarayonida quyidagi afzalliklarni ta'minlaydi:

1. Fanning turli yo'nalishlar o'rtasida bog'liqlik: O'quvchilar bir fan doirasida olgan bilimlarini boshqa fanlar bilan bog'lay olishi, bu esa bilimlarni yanada chuqurroq o'zlashtirishga yordam beradi.

2. Kompleks fikrlash qobiliyati: Integrativ yondashuv o'quvchilarning analitik va tanqidiy fikrlash qobiliyatini rivojlantiradi.

3. Motivatsiya oshishi: Turli fanlar birlashtirilishi o'quvchilarda ta'limga nisbatan qiziqish va motivatsiyani uyg'otadi.

4. Ijodkorlikni rivojlantirish: Integrativ ta'lim o'quvchilarning ijodkorlik qobiliyatlarini rivojlantiradi, chunki ular yangi noodatiy yechimlar topishga intiladilar.[2]

Integrativ ta'lim boshlang'ich ta'limda qo'llanilishi o'quv jarayonini samarali va qiziqarli qilish imkonini beradi. Ushbu yondashuvni qo'llashda o'qituvchilarning ro'li katta, chunki ular turli fanlarni bir-biriga bog'lab, o'quvchilar uchun qiziqarli va foydali darslar tashkil etishlari kerak. Shuningdek, integrativ ta'limni amalga oshirish uchun maxsus o'quv dasturlari va metodikalari ishlab chiqilishi zarur.

**XULOSA**

Integrativ ta'lim boshlang'ich ta'limda o'quvchilarning bilim darajasini oshirish, ularning fikrlash va ijodkorlik qobiliyatlarini rivojlantirishda muhim o'rin tutadi. Ushbu yondashuvni muvaffaqiyatli amalga oshirish uchun o'qituvchilarni tayyorlash, maxsus o'quv dasturlarini yaratish va resurslar bilan ta'minlash zarur. Integrativ ta'lim orqali o'quvchilarni ko'p qirrali va kompleks fikrlashga undash mumkin bo'ladi. Integrativ ta'limni muvaffaqiyatli amalga oshirilishi uchun: O'qituvchilarga integrativ ta'lim usullarini o'rgatish va ularni qo'llashga undash; Boshlang'ich maktablarni kerakli resurslar va materiallar bilan ta'minlash; Integrativ ta'lim uchun maxsus metodikalar va qo'llanmalar yaratish kerak bo'ladi.

**ADABIYOTLAR RO'YXATI**

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018-yil 5-sentabrdagi "Xalq ta'limi boshqaruv tizimini takomillashtirish bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi PFRQ – 5538-son farmoni, "O'zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to'plami", 2018-yil 10-sentyabr, 36-son, 722-modda.
2. N.X. Avliyakov, N.N. Musayeva Pedagogik texnologiyalar-T.: „Fan va texnologiyalar“ nashriyoti, 2008-yil.
3. R.A. Mavlonova, N.X. Raxmonqulova "Boshlang'ich ta'lim pedagogikasi, innovatsiya va integratsiya". T. TDPU 2007-yil
4. K.Sh. Nishonova "Integrativ ta'lim tushunchasi va uning mazmun mohiyati" (2024) "Science and innovation" xalqaro ilmiy jurnali
5. O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligining elektron sayti: [www.edu.uz](http://www.edu.uz).